



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI



2022-yil yanvar-sentabr

BUXORO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2022- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar


Buxoro viloyatida 2022- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **2 000,3 ming kishini** tashkil etib, yil boshidan **23,5 ming kishiga** yoki **1,2 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **736,6 ming kishini** (jami aholi sonidagi ulushi **36,8 %**), qishloq aholisi soni **1 263,7 ming kishi** (**63,2 %**)ni tashkil etdi.



Yosh guruhlari bo'yicha aholi

2022- yil 1- oktabr holatiga

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **29,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **12,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Doimiy aholi soni

2 000,3 *ming kishi*

Tabiiy o'sish

+25,6 *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

2022-yil 1- oktabr holatiga

Shahar



36,8%


Qishloq



63,2%

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2022-yil 1- oktabr holatiga



Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, ming kishi

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	1 968,3	2 000,3	101,6
Buxoro sh.	283,0	287,8	101,7
Kogon sh.	62,1	63,5	102,3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	101,0	102,4	101,4
Buxoro	171,4	174,0	101,5
Vobkent	143,0	145,2	101,5
G'ijduvon	310,5	315,7	101,7
Kogon	80,7	82,1	101,7
Qorako'l	166,7	169,0	101,4
Qorovulbozor	18,9	19,4	102,6
Peshku	126,1	128,2	101,7
Romitan	145,5	148,1	101,8
Jondor	178,5	181,3	101,6
Shofirkon	180,9	183,6	101,5

Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2022- yil 1- yanvar holatiga




74,5 yosh

76,2 yosh

2022-yilning 1-yanvar holatiga Buxoro viloyati aholisining kutilayotgan oʻrtacha umr koʻrish davomiyligi **75,4** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **74,5** yoshga, ayollar uchun esa **76,2** yoshga teng. Shahar va qishloq joylar uchun kutilayotgan oʻrtacha umr koʻrish davomiyligi bir xil, yaʼni **75,4** yoshni tashkil etgan.

Buxoro viloyati boʻyicha aholi zichligi


2022- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga toʻgʻri keladigan aholi soni, kishi



Buxoro viloyatida 2022- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrda oʻrtacha 49,7 kishi toʻgʻri kelgan. Bu esa oʻtgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 0,8 kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga 48,9 kishi).

Hududlar boʻyicha qaraydigan boʻlsak, aholi zichligini eng yuqori koʻrsatkichi Buxoro shahrida 4 111,4 kishi, Kogon shahrida 3 175,0 kishi, Vobkent tumanida 500,7 kishi, Kogon tumanida 164,2 kishini, Buxoro tumanida 131,8 kishi tashkil etgan boʻlsa, eng past koʻrsatkichlar Qorovulbozor tumanida 8,8 kishi, Peshku tumanida 14,7 kishi, Qorakoʻl tumanida 19,4 kishi, Olot tumanida 31,7 kishi, Jondor tumanida 35,1 kishi, Shofirkon tumanida 49,4 kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUGʻILISHLAR




Hududlar kesimida tugʻilganlar soni




2022- yil yanvar-sentabr, kishi

Buxoro	26,7 %	5 718
Gʻijduvon	23,7 %	5 559
Shofirkon	21,2 %	2 899
Jondor	20,5 %	2 768
Qorakoʻl	21,6 %	2 722

Tugʻilganlarning taqsimlanishi


Yanvar-mart





2022- yil yanvar-sentabr oylarida **32,6** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **21,9** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yilda **21,6** promilleni tashkil etgan).

Tug'ilishlarning chaqaloqlar soni bo'yicha taqsimlanishi



2022- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha quyidagi ulushga ega bo'ldi:

- 1 nafar 97,7 %,
- 2 nafar 2,2 %,
- 3 va undan ortiq 0,1%

Tug'ilgan chaqaloqlar ota-onasining yoshi bo'yicha taqsimlanishi

Otaning yoshi

6,8%
40 yosh va undan kattalar

78,9%
25-39 yoshdagilar

14,3%
25 yoshgacha



Onaning yoshi

0,5%
40 yosh va undan kattalar


58,7%
25-39 yoshdagilar

40,8%
25 yoshgacha



2022- yil yanvar-sentabr oylarida tugʻilgan chaqaloqlar otasining yoshi boʻyicha **14,3 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **78,9 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **6,8 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga toʻgʻri kelgan. Shuningdek, tugʻilgan chaqaloqlar onasining yoshi boʻyicha **40,8 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **58,7 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **0,5 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat boʻlgan.

VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni



2022- yil yanvar-sentabr, kishi

Buxoro sh.	5,6 %	1 189
Gʻijduvon	4,7 %	1 106


Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart


Erkaklar **1 244** Ayollar **997**



Yanvar-iyun




Yanvar-sentabr




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 7,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan ko'rsatkich 0,1 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 4,8 promille bo'lgan).

O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

yanvar-sentabr






2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining **64,3 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,3 %** i – o'simtalardan, **5,3 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **5,5 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,6 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **1,2 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, **10,8 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR

Nikohlar soni, mingbirlik





Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, birlik



G'ijduvon	1 857	7,9 ‰
Buxoro sh.	1 830	8,6 ‰
Shofirkon	1 185	8,7 ‰
Qorako'l	971	7,7 ‰
Jondor	843	6,3 ‰
Vobkent	764	7,1 ‰
Romitan	695	6,3 ‰
Buxoro	693	5,4 ‰
Peshku	664	7,0 ‰
Olot	587	7,7 ‰
Kogon	366	6,0 ‰
Kogon sh.	345	7,3 ‰
Qorovulbozor	107	7,4 ‰

Nikohlarning taqsimlanishi



Yanvar-mart

Shahar	1 548	Qishloq	2 160
			
41,8%		58,2%	

Yanvar-iyun

Shahar	2 902	Qishloq	3 629
			
44,4%		55,6%	



Yanvar-sentabr

Shahar	4 704	Qishloq	6 203
			
43,1%		56,9%	

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **10,9** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,3** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **-0,9** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **8,2** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR

Nikohdan ajralishlar soni, mingbirlilik




Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, birlik


Buxoro sh.	2,4 ‰	511
G'ijduvon	1,2 ‰	273
Qorako'l	1,3 ‰	158
Jondor	1,1 ‰	155
Buxoro	1,1 ‰	145
Shofirkon	1,0 ‰	142
Romitan	1,2 ‰	128
Vobkent	1,0 ‰	107
Kogon sh.	2,1 ‰	97
Kogon	1,5 ‰	91
Peshku	0,9 ‰	85
Olot	1,0 ‰	79
Qorovulbozor	1,0 ‰	15

Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi


Yanvar-mart



Yanvar-iyun



Yanvar-sentabr




2022- yil yanvar-sentabr oylarida **2,0** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,2** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida **1,1** promille bo'lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr



farzandsiz
ajrashgan



2022- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **25,3 %** i farzandsiz, **45,4 %** i bitta farzand bilan va **29,3 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi



Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida erkaklar uchun **36,0** yoshni, ayollar uchun **33,0** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi 29 yoshlilarga to‘g‘ri kelgan, y’ani jami nikohdan ajrashganlarning **5,8 %** ini tashkil etgan.

AHOLI MIGRATSIYASI

2022- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **4 754** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **4 743** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **11** kishini tashkil etdi. Ko'chib ketganlar soni jami **6 995** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **6 953** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **42** kishini tashkil etib, migratsiya saldosi minus **2 199** kishini tashkil etdi.

Buxoro viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni
2022- yil yanvar-sentabr, kishi

	Ko'chib kelganlar			Ko'chib ketganlar		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		respublika-ning boshqa hududlaridan	xorijiy mamlakatlardan		respublika-ning boshqa hududlariga	xorijiy mamlakatlarga
Buxoro viloyati	4 754	4 743	11	6 995	6 953	42
Buxoro sh.	1 190	1 184	6	1 719	1 704	15
Kogon sh.	384	384		337	334	3
<i>tumanlar:</i>						
Olot	101	99	2	271	271	
Buxoro	774	773	1	560	557	3
Vobkent	206	206		448	445	3
G'ijduvon	481	479	2	1 035	1 021	14
Kogon	553	553		346	345	1
Qorako'l	115	115		576	576	
Qorovulbozor	198	198		133	133	
Peshku	138	138		229	228	1
Romitan	175	175		279	277	2
Jondor	163	163		365	365	

Shofirkon


276

276

697

697

JAMI KO'CHIB KELGANLAR



■ Ko'chib kelganlar, ming kishi
● O'sish sur'ati, % da




Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, kishi


Buxoro sh.	5,6 %	1 190
Buxoro	6,0 %	774
Kogon	9,1 %	553
G'ijduvon	2,0 %	481
Kogon sh.	8,2 %	384
Shofirkon	2,0 %	276
Vobkent	1,9 %	206
Qorovulbozor	13,8 %	198
Romitan	1,6 %	175
Jondor	1,2 %	163
Peshku	1,4 %	138
Qorako'l	0,9 %	115
Olot	1,3 %	101

Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi


Yanvar-mart



Yanvar-iyun




Yanvar-sentabr



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 4,8 mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 3,2 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan 0,5 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 3,7 promille bo'lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR



■ Ko'chib kelganlar, ming kishi


Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, kishi


Buxoro sh.	8,0 ‰	1 719
G'ijduvon	4,4 ‰	1 035
Shofirkon	5,1 ‰	697
Qorako'l	4,6 ‰	576
Buxoro	4,3 ‰	560
Vobkent	4,1 ‰	448
Jondor	2,7 ‰	365
Kogon	5,7 ‰	346
Kogon sh.	7,2 ‰	337
Romitan	2,5 ‰	279
Olot	3,6 ‰	271
Peshku	2,4 ‰	229
Qorovulbozor	9,2 ‰	133

Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi


Yanvar-mart



Yanvar-iyun



Yanvar-sentabr



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 7,0 mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan 1,3 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 6,0 promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va



ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 71 230-83-16, 65 223-83-37

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 71 230-83-16, 65 223-83-37